

Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda turli xil metodlardan foydalanish

Muallif: Jumaboyeva Mutoyiba

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqola kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning samarali va qiziqarli usullari haqida ma'lumot beradi. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini zamonaviy innovatsion metodlardan va turli amaliyotlardan foydalanib, mazmunli hamda qiziqarli o'rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.*

***Kalit so'zlar.** Maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, qiziqarli o'yinlar, STEAM usuli, multfilmlar, rasmlar orqali o'rganish, amaliy mashg'ulotlar, imo ishora usuli, zamonaviy metodlar.*

***Abstract.** This article provides information on effective and interesting ways to teach English to young children. In this article, you can get acquainted with meaningful and interesting methods of teaching English to preschool and elementary school students using modern innovative methods and various practices.*

***Key words.** Preschool education, primary education, interesting games, STEAM method, cartoons, learning through pictures, practical activities, gestural method, modern methods.*

Til bilganni, el biladi deganlaridek, hozirgi kun talabi xorijiy tillarni o'rganish bo'layotgani kuzatilmoqda. Jannatmakon vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng yurtimizda chet tillarini o'rganishga katta e'tibor va imkoniyatlar yaratildi, hozirda bu masalada muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, 2012- yil 10 – dekabrda qabul qilingan “chet tillarini o'rganish tizimini takomillashtirish to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

qarorlari hamda 2013-2014 – o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz, ayniqsa ingliz tilini o'rgatishning joriy etilishi buning yaqqol misolidir.

Shuningdek, ingliz tili kundan kunga dolzarblashib, rivojlanib bormoqda. Ammo til o'rganish ba'zi til o'rganuvchilarga qiyin ba'zilariga oson bo'lib ko'rinishi mumkin. Shu jumladan kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning oson usullari ham mavjud. Biz bilamizki, bolalar maktabgacha ta'lim yoshgacha qolaversa boshlang'ich ta'lim yoshida ham o'yinqaroq bo'lishadi.

Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina tarbiyalanayotgan bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rqmasdan gapira oladi. Agarda biz chet tili darsini dars emas, balki o'yin shakliga keltirsak kichik yoshdagi bolalarni qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularning faollik darajasi ham o'sib boradi. O'yining turlari juda ko'p misol uchun tarbiyachi "qopda nima bor degan" o'yini bolalar bilan o'ynashi mumkin. Xonadagi kichik buyumlarni xaltachaga solib, bolalarga birma-bir olishiga ruxsat beradi va bolalar bu buyumlar nomini ingliz tilida aytib berishadi. "Is it a watermelon(a pear, a grapes)?" tarbiyachi baholashga kirishadi, va eng ko'p ball to'plagan guruhni taqdirlaydi. Shu bilan bolalar yanada chet tiliga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi.

Moslashuvchan guruh atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Guruhda faoliyat boshida inglizcha yoqimli qo'shiq bilan tarbiyachi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuylaydilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o'z-ozidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo'lishga va qo'shiqni so'zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Inglizcha muhit, muhimi, yaxshi o'quv atmosferasiga tabiiy ravishda kirishga imkon beradi. Bolalarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati sust bo'lib, butun mashg'ulot davomida e'tiborini jamlashi va egallab olishi qiyin. Shuning uchun, tarbiyachi bolalar tinglashni yaxshi ko'radigan qo'shiqlarni, she'rlarni yoki tilni chiniqtirish uchun tez aytishlarni, yoki bo'lmasa bolalar yaxshi

ko'radigan animatsion multfilmni taqdim etishi kerak.

Multfilmlar. Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. Bolalar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar orqali o'rgatib kelinmoqda. Bu zerikarli til darslarini qiziqarli kunlik o'yinga aylantiradi. Tarbiyachi muntazam har bir bolani psixologiyasidan kelib chiqqan holda ularga tarbiya usulini qo'llashi zarur. Bu tarbiyachidan faqatgina tarbiyachi bo'lib qolishni emas bir vaqtning o'zida rassom, musiqachi, chet tili o'qtuvchisi, va yaxshigina psixolog ona bo'lishni ham talab qiladi

Mutaxassislarning fikricha, bolalar katta yoshdagi insonlarga qaraganda tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Ularda til o'rganishga bo'lgan moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga nisbatan bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Tabiiyki, kichik yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunmaydi, ular asosan o'yinlar, qo'shiqlar, tasviriy ifodalar yoki rasmlar, imo ishoralar orqali ya'ni mexanik usulda yodlaydilar. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatika darslaridan boshlamaslik kerak. Aks holda, bolalar zo'riqib qolishlari va qiziqishlari so'nib qolishi mumkin. Shuning uchun kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha ma'suliyatli va qiyin. Bolalarga ingliz tilini samarali va qiziqarli o'rgatishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin. [2,233]

- qiziqarli o'yinlar orqali o'rgatish. Bu usul bolalarning til o'rganishga qiziqtirishning asosiy usullaridandir.
- she'riy usulda yoki qo'shlar orqali kuyga solib o'rgatish misol uchun ingliz tili alifbosi qo'shiq qilib o'rgatilsa yodlashdan ko'ra samarali natija berishini ko'rishimiz mumkin. [4,1]
- STEAM usuli orqali o'rgatish. STEAM- zamonaviy ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion usullardan biri hisoblanadi. STEAM

qisqartmasiga nazar tashlasak juda murakkabdek ko'rinishi mumkin, ya'ni STEAM , S- science, T- technology, E- engineering, A- art , M – thematics. Bu metod bolalarda ushbu muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

- Ijodiy fikrlash,
- yarata olish
- tillarni o'rganish
- Multfilmlar orqali o'rgatish, bolalar ingliz tilini, balki boshqa tillarni o'rganishda multfilmlarda ishlatilayotgan so'zlar mazmunini qilayotgan harakatlari orqali ilg'ab olishlari mumkin. Va qahramonlarning harakatlari va holatiga qiziqishlari.[4,2]
- Rasmlar orqal til o'rgatish bolalarda rasmlarga qarab eslab qolish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'ladi . Odatda bolalar uchun lug'atlar rasmlar bilan beriladi.
- Harakatlar, amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatish, masalan, turli meva va sabzavotlarni tatib ko'rish, hidlab ko'rish, misol uchun olma (apple) ni oladigan bo'lsak, bolalar uni ta'tib ko'rish mobaynida olmaning rangini sariq (yellow) yoki qizil (red) ekanligini; ta'mi shirin (tasty) , shakli dumaloq (round) kabi ma'lumotlar so'radi va bu ancha samarali usul hisoblanadi.
- Imo ishoralar orqali o'rgatish . Biz dars mobaynida kuzatishimiz mumkinki, bolalarga o'rningizdan turing (stand up) so'zini, yoki o'tiring (sit down) so'zini yuz ifodasi orqali yoki imo ishora usuli orqali ifoda etsak, ular bu jummalarning ma'nosini tez ilg'ab olishlari mumkin.[3,5]

- Zamonaviy metodlar orqali o'rgatish. Hozirgi paytda, axborot texnologiyalari ommalashib, rivojlanib bormoqda, bu o'z o'zidan zamonaviy texnologiyalarning yanada yuksalishiga sabab hisoblanadi. Shuningdek kichik yoshdagi bolalar zamonaviy uyali axborot vositalari (telefon, kompyuter) ni bemalol ishlata olishadi, shuni inobatga olib va vositalardan foydalanib til o'ragishga asoslangan o'yinlar va ilovalardan foydalanib o'rgatish mumkin.
- “Bob books” kitoblari orqali o'rgatish, bu kitoblar kichik hajmda va turli rangda ,kitob muqovasining o'zi bolalarning diqqatini o'ziga jalb qilish xususiyatiga ega . Bundan tashqari unda ishlatilgan so'zlar yangi ishlatilmagan so'zlar emas balki bolalarning ota- onalari, ustozlari eng ko'p ishlatadigan kundalik so'zlar hisoblanadi. Shuningdek bu kitoblarning har biri uchun alohida mavzu tanlangan masalan qizlar qiziqadigan Disney qahramonlari ,malikalar yoki hamma bolalar uchun sevimli bo'lgan mevalar yoki hayvonchalar kabi . Bu kitoblar kitobxonlar yoshiga qarab turli darajalarda ishlab chiqilgan. Bu kabi kichik kitoblar amerikalik mualliflar tomonidan yaratilgan. Bu kitoblar yosh kitobxonlar uchun ingliz tilini o'rganishning qiziqarli usullaridan xisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bolalar juda qiziquvchan bo'lishadi muloqotga tez kirishishadi, taqlidaga moyillik kuchliligi tufayli ularga o'yin tarzidagi va majburiyatlarsiz darslar o'tilib til o'rgatilishi maqsadga muvofidir. Ular takroriy tinglashlar orqali o'qitiladi natijada ularning gapirish qobiliyati rivojlanadi. Bilamizki, bu davrda bolalarning individual xarakteri va shaxsiyati rivojlanayotgan bo'ldi, shuning uchun tarbiyachi qo'llaydigan har bir usul va yondashuv bola rivojiga ijobiy ta'sir etishi mumkin. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilini bilish ko'nikmalarini oshirishda zamonaviy metod va yondashuvlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. David A . J Eggen , P . Kauchak, o'qitish usullari, talabalarning bilim olishini targ'ib qilish, 2002 .
2. Jalolov .J.J. Chet tilini o'qitish metodikasi – T ..o'qituvchi, 2016. (233-sahifa)
3. Narzullayeva O.A , Qurbonnazarova M. N maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning zamonaviy usullari.(5-sahifa)
4. Yo'ldosheva D.A . Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullari, 2022. (1-2-sahifa)